



Axloqiy chetlanish (devian) xulq-atvorining falsafiy mohiyati va uning asosiy shakllari

Rahmonov Soxibjon Toxirjonovich

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti

Ikkinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi Tezkor faoliyatni muvofiqlashtirish guruhi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili, Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada axloqiy chetlanish (devian xulq-atvor)ning falsafiy mohiyati, uning ijtimoiy-madaniy ildizlari va shaxs hamda jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir jarayonlari yoritiladi. Tadqiqotda deviant xulq-atvorning asosiy shakllari, ularning ma'naviy-insoniy qadriyatlarga zid bo'lishi hamda ijtimoiy tartibni buzishdagi roli tahlil qilinadi. Muallif tomonidan zamonaviy jamiyatda axloqiy me'yorlarning o'zgarishi jarayoni va uning yoshlar ongiga ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan izohlanadi.

Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, axloqiy chetlanish, ijtimoiy me'yor, ma'naviyat, jamiyat.

Аннотация: В статье рассматривается философская сущность морального отклонения (девиантного поведения), его социально-культурные основы и взаимодействие между личностью и обществом. Анализируются основные формы девиантного поведения, их противоречие нравственным ценностям и влияние на нарушение общественного порядка. Автор также объясняет трансформацию моральных норм в современном обществе и ее воздействие на сознание молодежи с философских позиций.

Ключевые слова: девиантное поведение, моральное отклонение, социальные нормы, духовность, общество.

Annotation: This article explores the philosophical essence of moral deviation (deviant behavior), its socio-cultural roots, and the dynamic interaction between the individual and society. It analyzes the main forms of deviant behavior, their contradiction to ethical values, and their role in undermining social order. The author also interprets the transformation of moral norms in modern society and its influence on youth consciousness from a philosophical perspective.

Keywords: deviant behavior, moral deviation, social norms, morality, society.

Axloqiy chetlanish xulq-atvori muammosini falsafiy tahlil qilishga o'tganda, bugungi kunda ko'plab mutaxassislar ushbu masalaga yondashishda shunday pozitsiyani egallaydiki, axloqiy buzilish ko'p jihatdan ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi — ya'ni shaxs jamiyatdan talablarni baholashda asos sifatida o'z qarashlari, e'tiqodlari, hayotiy tajribasi, his-tuyg'ulari



va emotsiyalaridan iborat omillar to‘plamini hisobga oladi. Shu bilan birga, bu shaxsning huquq va huquqiy ong masalalariga munosabati, shuningdek, ijtimoiy yoki shaxsiy manfaatlarda ma’lum qonuniy yoki noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishga tayyorligini belgilaydi.

Bu tushunarli, chunki jamiyat o‘z tarixi davomida har doim odamlarning umumqabul qilingan yoki rasmiy belgilangan ijtimoiy normalarga mos kelmaydigan xulq-atvori masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu muammoni hal qilish talabi falsafa doirasida huquqbuzarlikka moyillik dunyoqarashining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan¹. Uning shakllanishi, shuningdek, “deviant xulq-atvor” atamasining keng tarqalishi (lotincha *deviatio*– burilish, chekinish) E.Dürkgeymning ijtimoiy disorganikatsiya nazariyasining rivojlanishi bilan bog‘liq².

G‘arbda ushbu masalani yanada chuqur o‘rganish M.Vebber, R.Merton, A.Koen, A.Ketl, T.Parson, P.Sorokin, G.Tard va boshqalar³ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu fan sohasida yangi nazariya va konsepsiyalarning paydo bo‘lishiga yordam berdi.

A.N.Kazakovning adolatli ta’kidlashicha, ilmiy oqimlar va maktablarning ko‘pligi zamonaviy g‘arb axloqiy buzilish falsafasining sezilarli darajada murakkablashtirdi va “xulq-atvor” tushunchasini talqin qilishda ma’lum konseptual ko‘p ma’nolilikni kiritdi⁴. Shuningdek, huquqiy jarayon ta’sirida izlanishlarimizning asosi yoshlar orasida huquqbuzarliklar tahliliga qaratildi. Shu boisdan murakkab fe’lni huquq jihatidan tadqiq qilinadigan bo‘ldi. Yomon hulq, qoidabuzarlik kabilar doim kuzatuv ostida turdi. Falsafada esa deyarli kam tahlil qilindi. Ya’ni yoshlar orasidagi jinoyatchilikka moyillik, uning sabablari ilmiy tahlil qilishga harakat qilindi. Bu borada turli yosh toifasidagi insonlarning xulq-atvori, ulardagi o‘ziga xos shakllar tadqiq qilindi.

¹ Шапинский В.А., Мареев В.И. Девиантное поведение и социальный контроль: Учебноспособие. - Ростов-на-Дону, 2017. - 100 с.

² Дюркгейм Э. Ценностные и «реальные» суждения // Социологические исследования. - 2001. - № 2.

³ Вебер М. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990. –С. 805.// Кетле А. Социальная физика, или Опыт исследования о развитии человеческих способностей. - Киев, 1911. - Т. I. - С. 52.// Парсонс Т. Человек в современном мире. - М.: Прогресс, 1985. С.428.// Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество: Пер. с англ. / Общ.ред. А. Ю. Согомонова. - М.: Политиздат, 2002. - С. 141, 298.

⁴ Казаков А.Н. Социальная обусловленность отклоняющегося поведения в современном российском обществе: Автореф. дис. ... канд. социол. наук. - Казань, 1996. - 18 с.



Shuningdek, ijtimoiy buzilishlarni ularning umumiy xususiyatlariga ko'ra bir yo'nalishda bo'lgan hodisalar sifatida talqin qilish mumkin emasligini ta'kidlash lozim. Ushbu o'rinda huquqbuzarliklarning qiyudagi ko'rinishlari ko'zga tashlandi.

- Yengil huquqbuzarliklar - turlicha ilm-fan, texnika va ijodda ko'zga tashlanadigan nuqsonlar. Sababi ijod doim ham mavjud me'yoriy qoida va tizimlarni tan olavermaydi. Ijodning ahamiyati shundaki, u ma'lum bir jamiyatning aql va salohiyat jihatidan taraqqiy etishi, shuningdek, davri o'tgan ahloqiy mezonlarning yangilanishiga vosita bo'ladi.
- Ijtimoiy-salbiy buzilishlar — tizimni rivojlantirmaydigan, balki tanazzulga olib boruvchi omillar: ichkilikbozlik, o'g'rilik, maishiy buzuqlik, axloqsizlik, giyohvandlik kabilardir. Ular bevosita inqirozga sabab bo'luvchi holatlar sifatida tadqiq qilinadi.

Shuningdek, yaxshi va yomon deb qaraluvchi xulq-atvor o'rtasidagi chegara mutlaq emas va vaqt davomida nisbatan o'zgaruvchan bo'ladi. Bu masalaga, tadqiqotchi olim P.Sorokin ham e'tibor qaratgan, u ta'kidlaganki: "...hech bir harakat o'z mazmuni bo'yicha jinoyat hisoblanmaydi: qotillik va qutqarish, haqiqat va yolg'on, o'g'rilik va sovg'a berish, dushmanlik va sevgi, jinsiy beparvolik va tiyilish kabi harakatlarning barchasi turli kodekslarda jinoyat ham, jinoyat emas ham bo'lishi mumkin edi. Bular kim tomonidan amalga oshirilganligi, kimga qarshi qilinganligi va qanday sharoitlarda sodir bo'lganligiga qarab, albatta"⁵.

Demak, rivojlangan salbiy omillarga jazo nazarda tutilsagina u jinoyat maqomini oladi. Bunday omil huquqiy tamoyillarga mosdir: jinoyat faqat qonunda belgilangan harakat yoki harakatsizlik bo'lishi mumkin, shuningdek, uning ijtimoiy xavflilik darajasi ham belgilanishi lozim. Shunga qaramay, ma'lum tarixiy davrda ma'lum jamiyat uchun ijtimoiy salbiy axloq chegarasi aniq belgilanganini hisobga olsak, biz shaxsning deviant xulq-atvor yo'nalishini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Huquqiy ong va jinoyatchilikning oldini olish nuqtai nazaridan tadqiqot obyekti albatta ijtimoiy salbiy shakllardagi axloqsizlik bo'ladi.

⁵ Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество: Пер. с англ. / Общ.ред. А.Ю.Согомонова. - М.: Политиздат, 1992. - С. 62.



Shu munosabat bilan, keyingi matnlarda “xulqiy og‘ish” va “chekinuvchi xulq-atvor” atamalaridan foydalanganda, biz uning ijtimoiy salbiy axloqsizlik shakllarini nazarda tutamiz.

Tajribalar shunday bo‘ldiki, ijtimoiy buzilishlar masalalarini o‘rganishda yetakchi o‘rin oxirgi vaqtgacha xorijiy deviant xulq-atvor tadqiqot ishlari tomonidan egallangan, holbuki, mahalliy axloqsizlikka oid izlanishlar mustaqilligimizdan keyingi davrda qisqa muddatli nazariy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar bilan shug‘ullangach, O‘zbekiston sharoitida ushbu fenomenning ijtimoiy bazasi yo‘qligi haqidagi dogmalarining tasdiqlanishi va hukmronligi bilan bog‘liq holda nisbatan yaqinda – faqat 2000 yillardan boshlab rivojlana boshladi. Shuning uchun ham salbiy fe‘l atvor borasidagi ishlar uning “ikkinchi yaralishi”dan keyin bir qancha chet el olimlari tomonidan, ularning nuqtai nazari asosida tahlil qilinadigan bo‘ldi. Boshqacha aytganda, ilmga G‘arb olimlarining bu boradagi yondashuvi va tahlili ham jalb qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Шاپинский В.А., Мареев В.И. Девиантное поведение и социальный контроль: Учебноспособие. - Ростов-на-Дону, 2017. - 100 с.
2. Дюркгейм Э. Ценностные и «реальные» суждения // Социологические исследования. - 2001. - № 2.
3. Вебер М. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990. –С. 805.// Кетле А. Социальная физика, или Опыт исследования о развитии человеческих способностей. - Киев, 1911. - Т. I. - С. 52.// Парсонс Т. Человек в современном мире. - М.: Прогресс, 1985. С.428.// Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество: Пер. с англ. / Общ.ред. А. Ю. Согомонова. - М.: Политиздат, 2002. - С. 141, 298.
4. Казаков А.Н. Социальная обусловленность отклоняющегося поведения в современном российском обществе: Автореф. дис. ... канд. социол. наук. - Казань, 1996. - 18 с.
5. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество: Пер. с англ. / Общ.ред. А.Ю.Согомонова. - М.: Политиздат, 1992. - С. 62.